

POEMACHILIK KECHA VA BUGUN

Zamiraxon Ibragimova

GulDU Magistratura bo'limi

Adabiyotshunoslik yo'nalishi

2-kurs 9-21 magistranti

ANNOTATSIYA

Dostonchilik tarixiga bir nazar orqali istiqloq davri poemalari tahlil etilgan ushbu maqolada an'anaviy va yangicha ruhdagi poemalarda o'ziga xoslik, yangilik nimada ekanligi, shuningdek poemalarni jahon adabiyotidagi o'rni va ahamiyati borasidagi ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Erotizm, konvensiya, norveg didi, poemada an'ana, novatorlik, tarixiy dostonlar, zamon, tarixiy shaxslar tasviri, talmeh, badiiy san'atlar.

ABSTRACT

In this article, which analyzes the poems of the period of independence through a glance at the history of epic writing, scientific conclusions are given about the originality and novelty of traditional and modern poems, as well as the place and importance of poems in world literature.

Key words: Eroticism, convention, Norwegian taste, tradition in poetry, innovation, historical epics, time, depiction of historical figures, talmeh, fine

Dostonchilik tarixiga nazar tashlab bu yo'nalishdagi asarlarni quyidagicha izoqlash mumkin. 1.Xalq folklori eposlari. 2.Mumtoz yozma dostonlar. 3.Yangi o'zbek dostonlari. Shu bilan birga jahon adabiyoti durdona asarlari qatoridagi dostonlari. Yangi o'zbek dostonlariga har uch shakldagi poemalarning ta'siri sezilarlidir. Bu poema janri imkoniyatlarini yuqori baholashga olib keladi. Chunki o'z xususiyatiga ko'ra lirik, epik, dramatik, liro-epik turga mansub xossalarga ega bo'lishi mumkinligi to'g'risida nazariy qarashlarga olib keladi.

Yangi o'zbek dostonlarida esa folklor, mumtoz yozma poemalar, jahon adabiyoti eposlarining xususiyatlari mujassamlashganini ko'ramiz. Masalan:

- yangi o'zbek poemalarida epik olam, uni idrok etish tarsi o'zgarib, epos va mumtoz dostonlardagi epic tasvirlardan butunlay farqlanib bormoqda;

- xalq eposlari uchun voqelik asosiy ob'ekt bo'lsa, zamonaviy poemalar esa shaxsni asosiy ob'ekt sifatida qaraydi;

- fantastik tasvirlardan reallik tomon siljib, hayotiy haqiqat tasvirlari kengroq talqin etiladi;
- tarixiy fojealar orqali inson fojeasi, orzu-umidlari talqini ko'rsatiladi;
- qahramon xayoli, xotirasida gavdalantirilgan o'tmish manzaralari tasviri beriladi;
- millat fojeasi shaxs muammosi talqini orqali yoritiladi;
- monolog va diologlardan ijodiy foydalanish doston kompozitsiyasiga mos tarzda unng imkoniyatlarini kengaytiradi;
- zamonaviy dostonlarda globallashuv jarayonlaridagi inson psixologiyasi, muvozanatini saqlab qololmasligi borasidagi qarashlar talqin etiladi.
- ziyolilar fojeasi yoritilgan, o'tgan asr boshidagi jadidchilik vakillarining achinarli taqdiri borasidagi dostonlarda ham tarixiy voqealar tasviri berilgandir. M.Yusufning "Qora quyosh" dostonida bolalarning qatag'on qilinishi, millat ziyolilarining fojeaviy taqdiri borasidagi tasvirlar berilganligi e'tirof etiladi.

Jahon adabiyotiga bir nazar tashlasak, poemachilik eng qadimdan mavjud bo'lgan o'rta sarlarda ritsarlik sagalari keng tarqalgan. Norvegiyada dostonlar romantik bir janr. XIII asrdan boshlab, fransuz tili tarjimalari bilan lotin romantikalari va tarixlari janr xususiyatlari shu kabi uslubda kengayib bordi. Islandiyada sagalar ko'p asrlar davomida keng o'qilgan janrdir. Skandinaviyada ritsarlik sagalari yaratish XIII asrda Norvegiyaga, XIV asrda Islandiyaga qaratilgan bo'lib, Daniya va Shvetsariya zamonaviy romantikalari keyinchalik tanilib bordi. Ular, asosan, she'r shaklida bo'lgan. Ba'zida "yolg'on sagalar, xayoliy ritsarlik va afsonaviy dostonlar" kabi atamalarga duch kelamiz. Xuddi shu uslubdagi asarlar (qirol Xakon tomonidan buyurtma qilingan bo'lishi mumkin) "Parcevals" dostoni, "Shlangi qopqoq va Erex saga" barchasi Krioten de Troyes asaridan olingan deb qaraladi. "Karlomagnum" dostoni, "Bervers saga", "Flores saga ok Blankiflur", "Flavent dostoni", "Partalopa dostoni" kabi boshqa asarlar tarixiy ma'lumotlarga tayanib Fransuz asl nusxalaridan kelib chiqqan deb ishoniladi. Lotin tilidan tarjima qilingan psevdotarixiy asarlari – "Aleksandlar dostoni", "Amicus saga ok Amilius", "Trojumanna saga", shuningdek, "Bern haqida saga" nemis tilidan tarjima qilinganligi aytiladi. Yuqoridagi qadimgi Norvegiya tarjimalariga Margaret Kluni Ross shunday ta'rif bergan: "Qadimgi Norvegiya atamasi *riddarasaga*... lotin, fransuz, anglo-normandagi bir qancha janrlarni qamrab oladi, ammo ularning barchasiga xos bo'lgan umumiy odob-axloq qoidalari, qirollikka bo'lgan qiziqishlari ritsarlik odobi va odobli muhabbat bilan bog'liq jihatdir." Erec va Enide, Yvain va Perceval Xakonning saroyiga yetkazib bergan tarjimonlar hamda Norvegiyadagi va Islandiyadagi bunday dostonlardan bahramand bo'lgan shaxslar o'z manbalarini mustaqil ravishda qayta yozishni taklif qilishadi. Ular Kretyenning odob-axloq jamiyatiga nisbatan kinoya bilan qarashning

bir qator muhim jihatlarini yetkazmaydi. Bunga sabab tarjimonlar ruhoniy kishilar bo‘lganligi uchundir. Ammo unda an’anaviy norveg didi, va rivoyat konvensiyasi aks etardi. Xususan, aniq erotizmning asosiy elementlari o‘chirildi. Riddaraso‘gur qahramonlari xatti-harakatlarida komediya va kinoya mavjud bo‘lgan. Buning o‘rniga rivoyatlar ibratli va didaktik g‘oya kuchaytirilgan. XIV asrdan boshlab Islandiyaliklar o‘zlarining ishqiy-dostonlarini g‘ayrat bilan yoza boshlaydilar. Yevropada Ritsarlik dostonlari XX asrga qadar Islandiyada qo‘lyozmalarning keng tarqalishi orqali saqlanib qoldi. Ular ba’zan qayta ishlangan O‘rta asrlar bilan bir xil shakldagi yangi ritsarli poemalari XIX asrga qadar tuzilib kelmoqda. XVIII asrda ba’zi ritsarlik dostonlari Daniya va Shvetsiya tarixi uchun foydali deb qabul qilindi va ularni shu mamalakatda bosilib chiqarildi. Kalinke va Mitchellning *“Qadimgi Norvegiya-Islandiya romantikalari bibliografiyasi”* ushbu dostonlar to‘plamining qo‘lyozmalari, nashrlari, tarjimalari va ikkinchi darajali adabiyotlari bo‘yicha keng qo‘llanma hisoblanadi (1985-y). Shuningdek, o‘rta asrlardan keyin Islandiyada romantizm dostonlar yozilishi davom etgan bo‘lib, 150ga yaqin misollar mavjud. Ular o‘nta ruhoniy tomonidan yozilgan deb ishoniladi.

Binobarin, poemachilik janri xususidagi mulohazalar turlicha. Jahon adabiyoti namunalari Dantening “Ilohiy komediy”, Bayronning “Donjuan”, Nekrasovning “Russiyada kim yaxshi yashaydi”, A.Tvardovskiyning “Vasiliy Terkin”, N.Hikmatning “Inson manzaralari” kabi poemalar ham hajm a mazmuni jihatidan bir-birini takrorlamas asarlardir.

Poemachilik vakillari oxirgi yillarda zamonaviy proza yutuqlaridan foydalanish bilan birga A.Voznesenskiy, Ye.Yevtushenko, R.Hamzatov singari ijodkorlar tajribasini ham idrok etmoqdalar. O.Matjonning “Ming bir yog‘du” dostonida Navoiy asarlaridan, “Cho‘ldagilar” asarida ensiklopedik manbalardan, T.Ahmadning “Moziy saboqlari”da arxiv ma’lumotlari, I.Otamurodning “Sen” asarida noma janri, T.Nizomning “Girya” dostonida mumtoz shoirlarning g‘azallari, Faxriyorning “Ayolg‘u” dostonida esa tarixiy faktlar qo‘llanilishi o‘rinli bo‘lgan. Zamonaviy poemachilikning yangi sarhadlari, shakl va mazmun borasidagi o‘zgarishlar hamda o‘zgacha ifoda uslubi, inson ko‘ngil kechinmalarini e’tirof etishdagi yangicha yondashuv mustaqillik davri adabiyotidagi asarlarda keng talqin etiladi. I.Otamurod, T.Nizom, U.Azim, A.Qutbiddin singari bir qator yozuvchi, shoirlar ijodida buni kuzatamiz. Hikoya, qissa, roman va dostonlarning deyarli barchasida modernistik uslub qirralarini ilg‘ash qiyin emas. Xuddi shunday asarlardan biri I.Otamurodning “Yarador umid otlari” dostoni bo‘lib, unda shoir tinish belgilar orqali tuyg‘ular tasvirini ajoyib tarzda bayon etadi. “Yobondagi yolg‘iz daraxt”, “Sopol siniqlari”, “Ichkari... tashqari...”, “Aning umidi” dostonlarida bu usulning kengayib borganini ko‘ramiz. Shoirning so‘nggi yillarda yaratilgan “Xaritaga tushmagan joy” (2003)

dostonida ham qahramon “men”idagi kechinmalar, izlanishlar tasviri berilsa, “Tag‘azzul” (2005) poemasida esa mumtoz an’analarining yangicha jilosini kuzatamiz. Unda shoir poemaga g‘azal ruhini olib kiradi. Sharq adabiyoti mumtoz lirikasiga xos hijron kuyidan zoda ko‘ngil chizgilari, ramziy timsollar o‘z ifodasini topgan.

Xulosa qilib aytamizki, o‘zbek poemachiligi tarixi uzoq o‘tmish davrlaridan to bugungi kunga qadar davom etib kelayotgan an’anaviylik, ramziylik, to‘qimalilik, uslub o‘zgarishlari, tantanavorlik, tarixiy haqiqat va badiiylik singari ko‘plab o‘ziga xosliklarni asarlar mazmuni va tarkibida saqlab kelmoqda. Ya’ni, poemalarimizda eng qadimgi og‘zaki ijod namunalarining belgi xususiyatlari, qahramonlar talqinidagi fantastik hamda tantanavorlik, o‘rta asrlar adabiy jarayonidagi o‘zgarishlar, mumtoz dostonchilik an’anaviyligini, masnaviy shakl orqali lirizmning kuchayishini, keying davr dostonlaridagi shakl va mazmun tarkibida yangilanishlarni, dialog, monolog, barmoq ham aruz vazni belgilarini qo‘llash bilan romantizm ruhini berish, realism uslubini kirib kelishini aniq tasvirlarda kuzatamiz. Zamon va makon o‘zgarishlaridagi o‘ziga xosliklarni bag‘riga joylab boruvchi adabiy jarayon namunalarida milliylik, insoniylik, bag‘rikenglik, komillik, sadoqat, bardoshlilik, do‘stlik, tinchlik kabi umuminsoniy g‘oyalar tarannumi ahamiyatlidir. So‘nggi yillardagi dostonlarimiz mazmun-mohiyatida ham yuqoridagi belgi xususiyatlarni yangicha talqinini, davr bilan hamohang tarzda badiiy ifodalanishi borasidagi nazariy fikrlar asoslidir. Shuningdek, jahon poemachiligi xususiyatlari, uslubini ham ijodiy o‘rganish dostonlarimizga olib kirish, modernizm nafasi sezilib turgan asarlarimizda ham milliy qadriyatlarimiz, o‘zligimizga sodiqlik ko‘rinadi. Yangilinib borayotgan badiiy ruh, tasvir ifodasi orqali bugungi kitobxon qalbiga kirib bora olishi bilan yangi o‘zbek adabiyoti namunalari qatorida dostonlarning o‘z o‘rni mavjud. XX asr o‘zbek adabiyoti dostonchiligi bir qator o‘zgarishlar bilan ajralib turadi. Xususan, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan va mumtoz adabiyot manbalari an’analarini davom ettirish, o‘ziga xosligini va yangicha shakl xususiyatlarini aks etishi bilan ma’lum bir uslub yo‘nalishlar paydo bo‘lmoqda. Demak, XX asr ijodkorlari yangi davr dostonchiligi tarixdagi mumtoz adabiyotimiz poemalari an’anasini mazmuniy jihatdan emas, balki badiiy nuqtai nazardan ham unga mos shaklda diniy, tasavvufiy, falsafiy ruhda badiiy talqin etishda masnaviy usuldan, aruz vazni imkoniyatlaridan, shuningdek barmoq tizimi shaklidan keng foydalangan holda o‘zbek adabiyotining poemachilik yo‘nalishidagi yangi mazmun mohiyatga ega o‘ziga xos belgilari bilan ajralib turuvchi dostonlar yaratdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Adabiyot nazariyasi. Jamoa. Ikki tomlik. 2-tom (Adabiy-tarixiy jarayon). – T.: “Fan”.1979.
2. Q.Yo‘ldoshev. Yoniq so‘z. – T.: Yangi asr avlodi/ 2006. 394-b.
3. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T., 2005. 179-b.
4. U.Jumanazarov. O‘zbek tarixiy folklorining janriy xilma-xilligi va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. Doktorlik dissertatsiyasi. – T., 1991.
5. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘atit-turk. Turkiy so‘zlar
1. S.N.Ibrohim. ruhning rangin sadolari / Asqar Mahkam. Haq. Saylanma. Adib, 1998. 14-b.
2. O.Matjon. Nega men? Sharq yulduzi, 1990-yil, 6-son, 41-b.
3. Faxriyor. Yoziq. Doston//Sharq yulduzi, 1991. 4-son, 91-b.
4. T.Nizom. Bahoriy maysalar. Saylanma. I jild. T. 2007. 247-b.
5. T.Nizom. Avji yoz. 2- jild. T.: 2007.
6. E.Shukur. Hamal ayvoni. T: Sharq, 2002. 231-bet.
7. Takomil mashaqqatlari. Ulug‘bek Hamdam bilan suhbat. “Tafakkur”. 2017. 3-son. 22-27-b.
8. O.Matjon. Nega men? Sharq yulduzi, 1990-yil, 6-son, 41-b
9. S.N.Ibrohim. ruhning rangin sadolari / Asqar Mahkam. Haq. Saylanma. Adib, 1998. 14-b.
10. X.Davron. Vatan haqida yetti rivoyat//Sharq yulduzi, 1990, 8-son, 159-163-b.